



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
STATISTIKA AGENTLIGI**



**BUXORO VILOYATIDAGI  
KORXONA VA TASHKIOTLAR  
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**

*2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024-yil 1-mart holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 30 465 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 26 850 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining pasayishi 3,8 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 4,5 foiz ) tashkil etdi.

## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda.*

### Faoliyat ko‘rsatayotgan


### Ro‘yxatdan o‘tgan




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda



## Yillar kesimida soni



## Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 250 taga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	165	2,1 %	Shofirkon t.	41	2,3 %
G'ijduvon t.	74	2,4 %	Kogon t.	38	2,3 %
Vobkent t.	57	3,0 %	Kogon sh.	25	2,2 %
Romitan t.	68	2,4 %	Olot t.	39	3,4 %
Qorako'l t.	34	2,1 %	Peshku t.	30	1,7 %
Buxoro t.	60	2,7 %	Qorovulbozor t.	20	2,8 %
Jondor t.	38	1,5 %			

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024- yil 1- mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yilning mos davriga (31 660 ta) nisbatan 1 195 taga pasayganligini quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli pasayishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 213 tadan 9 153 taga (kamayish 60 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3 122 tadan 2 916 taga (206 taga kamaygan), sanoat – 4 681 tadan 4 057 taga (624 taga kamaygan).

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	8 134	Peshku t.	1 760
G'ijduvon t.	3 134	Kogon t.	1 675
Romitan t.	2 807	Qorako'l t.	1 598
Jondor t.	2 485	Kogon sh.	1 142
Buxoro t.	2 194	Olot t.	1 150
Vobkent t.	1 889	Qorovulbozor t.	722
Shofirkon t.	1 775		

2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-fevral holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 663 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 661 ta;
- yirik korxonalar 2 ta.

## Hududlar kesimida



Buxoro sh.	157	2,2 %	Shofirkon t.	39	2,4 %
G'ijduvon t.	73	2,6 %	Kogon t.	36	2,4 %
Vobkent t.	56	3,3 %	Olot t.	38	3,9 %
Romitan t.	65	2,5 %	Kogon sh.	24	2,4 %
Qorako'l t.	33	2,5 %	Peshku t.	28	1,8 %
Buxoro t.	58	3,0 %	Qorovulbozor t.	19	3,0 %
Jondor t.	37	1,6 %			




2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- mart holatiga 27 012 taga yetib, 2023- yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 95,5 foizni tashkil etdi (1 263 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,9 foiz, sanoat – 15,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 10,6 foiz, qurilish – 9,5 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,0 foiz, tashish va saqlash – 9,1 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,7 foiz, boshqa turlari – 10,0 foiz.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	7 180	Shofirkon t.	1 522
G'ijduvon t.	2 797	Kogon t.	1 531
Romitan t.	2 584	Qorako'l t.	1 343
Jondor t.	2 249	Kogon sh.	1 009
Buxoro t.	1 956	Olot t.	981
Vobkent t.	1 682	Qorovulbozor t.	639
Peshku t.	1 539		

2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra axborot-kommunikatsiya sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 30 tadan 17 taga (kamayish 13 taga), savdo – 324 tadan 204 taga (kamayish 120 taga) kamaydi.



## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	157	2,2 %	Shofirkon t.	39	2,6 %
G'ijduvon t.	71	2,6 %	Kogon sh.	24	2,4 %
Vobkent t.	56	3,3 %	Kogon t.	36	2,4 %
Romitan t.	65	2,5 %	Olot t.	38	3,9 %
Qorako'l t.	33	2,5 %	Peshku t.	28	1,8 %
Buxoro t.	58	3,0 %	Qorovulbozor t.	19	3,0 %
Jondor t.	37	1,6 %			

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (26,5 foiz), G'ijduvon (10,4 foiz), Romitan (9,6 foiz), va Jondor (8,4 foiz) va Buxoro (7,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	7 126	Shofirkon t.	1 515
G'ijduvon t.	2 780	Kogon t.	1 519
Romitan t.	2 574	Qorako'l t.	1 332
Jondor t.	2 245	Kogon sh.	997
Buxoro t.	1 950	Olot t.	975
Vobkent t.	1 675	Qorovulbozor t.	630
Peshku t.	1 532		



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat  
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar  
2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Romitan t.	583
Jondor t.	325
Kogon t.	287
G‘ijduvon t.	241
Buxoro t.	227
Peshku t.	216
Vobkent t.	202
Qorovulbozor t.	189
Shofirkon t.	190
Buxoro sh.	176
Qorako‘l t.	158
Olot t.	81
Kogon sh.	41



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda


## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	913
G'ijduvon t.	485
Kogon t.	355
Jondor t.	344
Romitan t.	326
Vobkent t.	296
Buxoro t.	284
Shofirkon t.	206
Qorako'l t.	199
Peshku t.	191
Kogon sh.	163
Olot t.	176
Qorovulbozor t.	119



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,0 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,3 foiz), 3,0 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (kamayish 11,9 foiz), 2,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (kamayish 6,5 foiz) va 0,5 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 116,7 foiz) tashkil etgan.



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	814
Romitan t.	249
Shofirkon t.	205
Jondor t.	208
Buxoro t.	185
Peshku t.	172
G'ijduvon t.	145
Kogon t.	137
Vobkent t.	119
Kogon sh.	104
Qorako'l t.	110
Olot t.	75
Qorovulbozor t.	53



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,8 foiz ulushni tashkil etib, pasayish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 85,5 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,6 foizga pasaygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 26,6 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 191,0 foizni tashkil etdi.

480



Fuqarolik  
obyektlarini qurish

684

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

1 412


Bino va  
inshootlar qurish



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	2 303
G'ijduvon t.	1 105
Romitan t.	757
Buxoro t.	699
Jondor t.	676
Qorako'l t.	576
Vobkent t.	541
Shofirkon t.	528
Peshku t.	530
Kogon t.	449
Olot t.	438
Kogon sh.	382
Qorovulbozor t.	169



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 127 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 61,8 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda pasayish sur'ati 96,0 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 26,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 103,7 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 11,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 109,4 foizni tashkil etdi.

1 029

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 463

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 661

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Buxoro sh.	867
G'ijduvon t.	226
Romitan t.	144
Vobkent t.	134
Jondor t.	128
Qorako'l t.	107
Buxoro t.	108
Olot t.	99
Kogon sh.	88
Shofirkon t.	83
Kogon t.	75
Peshku t.	73
Qorovulbozor t.	44



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar pasayish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 91,0 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'hlari, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 17,1 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 82,9 foiz ulushini tashkil etdi.

373

Yashash bo'yicha  
xizmatlar

1 803


Oziq- ovqat va  
ichimliklar yetkazish  
bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	164
Vobkent t.	25
Kogon sh.	23
Jondor t.	19
Romitan t.	20
Peshku t.	18
Shofirkon t.	16
G'ijduvon t.	15
Buxoro t.	13
Olot t.	11
Kogon t.	10
Qorako'l t.	10
Qorovulbozor t.	4



2024- yil 1-mart holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammlar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 90,2 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 27,6 foizini tashkil etib, pasayish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,7 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 56,6 foizini tashkil etib, kamayish sur'ati 98,0 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	365
G'ijduvon t.	75
Buxoro t.	70
Jondor t.	53
Kogon sh.	41
Shofirkon t.	42
Romitan t.	36
Vobkent t.	31
Peshku t.	30
Qorako'l t.	29
Kogon t.	21
Olot t.	11
Qorovulbozor t.	9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 742 ta yoki 91,3 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,1 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 100,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 100,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,4 foizini tashkil etib, kamayish sur'ati 73,3 foizni tashkil etdi;

11

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



20

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash




782

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	549
Jondor t.	354
G'ijduvon t.	325
Romitan t.	321
Vobkent t.	231
Buxoro t.	170
Shofirkon t.	138
Peshku t.	113
Kogon t.	106
Kogon sh.	58
Qorako'l t.	37
Olot t.	31
Qorovulbozor t.	19



2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 8,0 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 109,1 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 104,4 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 100,0 foizni tashkil etdi;


havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 75,0 foizni tashkil etdi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2024- yil 1- mart holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.





2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	143	2,5 %	Shofirkon t.	30	2,5 %
G'ijduvon t.	61	2,9 %	Kogon t.	32	2,7 %
Vobkent t.	46	3,8 %	Kogon sh.	20	3,1 %
Romitan t.	62	2,6 %	Olot t.	20	4,4 %
Buxoro t.	49	3,3 %	Peshku t.	26	2,0 %
Jondor t.	37	1,8 %	Qorovulbozor t.	16	2,8 %
Qorako'l t.	25	3,4 %			




2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





2024- yil 1- mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 27 012 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 21 005 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 32,9 foiz, sanoat – 13,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 12,0 foiz, qurilishda – 11,2 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	5 717	Shofirkon t.	1 209
Romitan t.	2 360	Kogon t.	1 194
G'ijduvon t.	2 100	Kogon sh.	639
Jondor t.	2 014	Qorako'l t.	743
Buxoro t.	1 471	Qorovulbozor t.	568
Peshku t.	1 316	Olot t.	453
Vobkent t.	1 221		


2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

**Xususiy korxonalar** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 11 taga, axborot va aloqa sohasida 3 taga kamaygan.


## Hududlar kesimida

Qorako'l t.	7	1,9 %	Kogon t.	2	1,1 %
Buxoro t.	5	1,8 %	Romitan t.	1	1,1 %
Buxoro sh.	3	0,4 %	Qorovulbozor t.	1	4,8 %
G'ijduvon t.	2	0,9 %	Olot t.	1	0,3 %


2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,8 foizni tashkil etadi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan kamayish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (68,0 foiz), axborot va aloqa (67,4 foiz), qurilish sohalari (70,0 foiz), tumanlar kesimida esa – G'ijduvon (90,0 foiz), Buxoro shahar (72,5 foiz), Qorovulbozor (95,5 foiz) va Shofirkon (90,0 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Buxoro sh.	749	Vobkent t.	109
Qorako'l t.	363	Jondor t.	107
Olot t.	312	Shofirkon t.	90
Buxoro t.	276	Romitan t.	89
G'ijduvon t.	234	Peshku t.	76
Kogon t.	184	Qorovulbozor t.	21
Kogon sh.	165		

2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

**Oilaviy korxonalar** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


## Hududlar kesimida

Olot t.	17	8,1 %	Buxoro t.	4	2,1 %
Buxoro sh.	11	1,8 %	Peshku t.	2	1,4 %
Vobkent t.	10	2,9 %	Kogon t.	2	1,4 %
G'ijduvon t.	10	2,2 %	Qorovulbozor t.	2	4,9 %
Shofirkon t.	9	4,3 %	Romitan t.	2	1,7 %
Kogon sh.	4	2,1 %	Qorako'l t.	1	0,5 %

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- mart holatiga ko'ra 2023- yilning mos davriga nisbatan 225 taga kamaygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 957 tadan 961 taga (o'sish 4 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 804 tadan 774 taga (kamayish 30 ta), sanoatda – 832 tadan 729 taga (kamayish 103 taga) sonining sezilarli kamayishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	618	Buxoro t.	190
G'ijduvon t.	453	Peshku t.	138
Vobkent t.	344	Kogon t.	140
Qorako'l t.	221	Jondor t.	114
Shofirkon t.	211	Romitan t.	120
Olot t.	209	Qorovulbozor t.	41
Kogon sh.	190		




## Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.


## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	6	Kogon sh.	1
Olot t.	1	G'ijduvon t.	1
Buxoro t.	1	Qorovulbozor t.	1


2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 187,4 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 53 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 15,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 12,9 foiz), Xitoy (ulushi 10,6 foiz), Turkmaniston (ulushi 15,5 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 4,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


## Hududlar kesimida

Buxoro sh.	<b>190</b>	Jondor t.	<b>10</b>
Buxoro t.	<b>28</b>	Qorako'l t.	<b>9</b>
Kogon t.	<b>20</b>	Peshku t.	<b>8</b>
Romitan t.	<b>16</b>	Shofirkon t.	<b>8</b>
Kogon sh.	<b>15</b>	Vobkent t.	<b>6</b>
G'ijduvon t.	<b>13</b>	Qorovulbozor t.	<b>5</b>
Olot t.	<b>13</b>		

*2024- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, birlikda*

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 160 tasi qo'shma korxonalar, 181 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

## qo'shma korxonalar

110	Buxoro sh	80
8	Buxoro t	20
8	Kogon t	12
6	Kogon sh	9
6	G'ijduvon t	7
8	Romitan t	8
4	Jondor t	6
2	Shofirkon t	6
6	Qorako'l t	3
2	Vobkent t	4
6	Peshku t	2
3	Qorovulbozor t	2
12	Olot t	1

2024- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- yanvar-fevral-fevraldagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Buxoro viloyat statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: (65) 223-83-20